

STOL TENNIS BILAN SHUG‘ULLANUVCHI 5-6-7 SINIF QIZ BOLALARDA NAFAS TIZIMI KO‘RSATKICHLAR DINAMIKASI O‘PKANING TIRIKLIK HAJMI ORQALI QIYOSIY TAVSIFLASH

Akbarova Barchinoy Bakiyevna
Boqiyeva Sarvinoz Haydarali qizi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida Andijon viloyatining Paxtaobod tumani 1- sonli sport maktabi 5-6-7-sinf o‘quvchilarining o‘pkaning tiriklik sigimi qiymatlari solishtirish asosida tahlil qilingan. Tadqiqotlarda umumiy qabul qilingan antropometrik tadqiqot uslublaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: spirometr, chuqur nafas, antropometrik, Styudent t–mezoni, jinsiy farq.

Annotatsiya : В данном исследовании на основе сравнения проанализирована жизненная емкость легких учащихся 5-6-7 классов спортивной школы № 1 Пахтаобадского района Андижанской области. В исследовании использованы общепринятые антропометрические методы исследования

Ключевые слова: спирометр, глубокое дыхание, антропометрия, t-критерий Стьюдента, гендерные различия.

Abstract: In this study, the vital capacity of the lungs of the 5th-6th-7th graders of the sports school No. 1 of the Paxtoabad district of Andijan region was analyzed on the basis of comparison. Generally accepted anthropometric research methods were used in the research.

Key words: spirometer, deep breath, anthropometric, Student t-criterion, gender difference.

Tadqiqot materiallari va uslublari. Andijon viloyatining Paxtaobod tumanida joylashgan 1- sonli sport maktabi va 13 maktab oquvchilarida amalga oshirildi. Tadqiqotlarda umumiy qabul qilingan antropometrik tadqiqot uslublaridan foydalanildi.

O‘pkaning tiriklik sig‘imini o‘lchash,

Tekshirishdan avval spirometr jo‘mragi spirt yoki margansovakali suv bilan artiladi. Tekshiriluvchi tik holatda, avval chuqur nafas oladi, burnini qo‘li bilan berkitib, spirometrii jo‘mragiga bir maromda chuqur nafas chiqariladi. Tana holatini o‘zgartirmasligi kerak. Spirometr shkalasi orqali o‘pkaning tiriklik sig‘imi 100ml aniqlikda o‘lchanadi. Tinch holatda, chuqur nafas olish va chuqur nafas chiqarish holatida o‘lchand (o‘lchash aniqlik darajasi $\pm 0,5$ sm ga teng)

Olingan natijalar OriginPro v. 8.5 SR1 (EULA, AQSH) maxsus dastur paketi yordamida statistik qayta ishlandi. Tajribalar natijalari L.V.Denisova va boshq. (2008) tomonidan keltirilgan uslublar yordamida matematik–statistik qayta ishlandi

Natijalar n marta takroriylikda amalga oshirilgan tajribalar qiymatlarining $M \pm m$ shaklida keltirilgan bo‘lib, M – o‘rtacha arifmetik qiymat va m – standart xatolik qiymatini ifodalaydi. SHuningdek, tajriba natijalari guruhlar o‘rtasidagi qiymatlarning statistik ishonchlilik darajasi Styudent t–mezoni asosida hisoblandi va $p < 0,05$, $p < 0,01$ qiymatlarda statistik ishonchli deb baholandi

Bolalar va o‘smirlarni jismoniy rivojlanishi umumbiologik qonuniyatlarga bo‘ysunadi, unga ko‘ra bola organizmi qancha yosh bo‘lsa o‘sish va rivojlanish jarayonlari shuncha tez ketadi. Shunga qaramasdan bolalar va o‘smirlarni jismoniy rivojlanishi geteroxrom

ko’rinishda jinsiy farq mavjud (S.M.Grombax, 1971; V.D.Glistovaskiy, 1988). Odami sog’ligi va salomatligi uning jismoniy rivojlanish darajasiga ko’ra baholanadi.

O’pkaning tiriklik sigimi funksional ko’rsatkich hisoblanadi. Jismoniy chiniqayotgan organizmda bu ko’rsatkichni ortishi kuzatiladi. (Kots, 1986 g)

Stol tennisi bilan shug’ullanuvchi 5-sinf qiz bolalarining o’pkaning tiriklik sigimini o’rtacha ko’rsatkichi 2000,3+54,8 ml ni tashkil etdi. Eng yuqori ko’rsatkich 2300 ml ni, eng past ko’rsatkich 1400 ml ni tashkil qildi.

Maktab o’quvchilarining o’pkaning tiriklik sigimini o’rtacha ko’rsatkichi 1700,2+52,0 ml ni tashkil etdi. Eng yuqori ko’rsatkich 2200 ml ni, eng past ko’rsatkich 1200 ml ni tashkil qildi. Ikkala sinf o’quvchilarini o’pkaning tiriklik sigimini o’zaro taqqoslanganda ular orasidagi farq 1000 ml ni tashkil etdi. Bu statistik jihatdan muqarrar. ($R < 0,05$).

Stol tennisi bilan shug’ullanuvchi 6-sinf qiz bolalarining o’pkaning tiriklik sigimini o’rtacha ko’rsatkichi 2826,3+84,8 ml ni tashkil etdi. Eng yuqori ko’rsatkich 3500 ml ni, eng past ko’rsatkich 2200 ml ni tashkil qildi. Maktab o’quvchilarining o’pkaning tiriklik sigimini o’rtacha ko’rsatkichi 1842,2±52,0 ml ni tashkil etdi. Eng yuqori ko’rsatkich 2300 ml ni, eng past ko’rsatkich 1500 ml ni tashkil qildi. Ikkala sinf o’quvchilarini o’pkaning tiriklik sig’imini o’zaro taqqoslanganda ular orasidagi farq 984,1 ni tashkil etdi. Bu statistik jihatdan muqarrar. ($R < 0,05$).

Stol tennisi bilan shug’ullanuvchi 7-sinf qiz bolalarining o’pkaning tiriklik sig’imini o’rtacha ko’rsatkichi 3000,0± 193,2 ml ni tashkil etdi. Eng yuqori ko’rsatkich 3900 ml ni, eng past ko’rsatkich 2400 ml ni tashkil qildi. Maktab o’quvchilarining o’pkaning tiriklik sig’imini o’rtacha ko’rsatkichi 2041,0+87,9 ml ni tashkil etdi. Eng yuqori ko’rsatkich 2700 ml ni, eng past ko’rsatkich 1400 ml ni tashkil qildi.

Ikkala sinf o’quvchilarini o’pkaning tiriklik sig’imini o’zaro taqqoslanganda ular orasidagi farq 959,0 ni tashkil etdi. Bu statistik jihatdan muqarrar. ($R < 0,05$)

O’pkaning tiriklik sig’imi

Stol tennis bilan shug’ullanuvchi va shugullanmaydigan maktab oquvchilari statistik taxlili						
	Qiz bollalar					
	1-Son sport maktabi 5-sinf	13-maktab 5 sinf	1-Spot maktabi 6 sinf	13-Maktab 6-sinf	1-Son sport maktabi 7 sinf	13-maktab 7- sinf
O’pkaning tiriklik sigimi(ml)	2000,3+54,8 ml	1700,2+52,0 ml	2826,3+84,8	1842,2±52,0	3000,0±193,2 ml	2041,0+87,9 ml
	(R<0,05).		(R<0,05).		(R<0,05).	

Xulosa: Jismoniy rivojlanganlikning funksional ko’rsatkichlaridan o’pkaning tiriklik sig’imi sport bilan shug’ullangan uchala sinf o’quvchilarida shug’ullanmagan o’quvchilarni o’rtacha ko’rsatkichlaridan sezilarli farq darajada kattaligi aniqlandi. Bu esa statistik jihatdan muqarrar xisoblanadi

Foydalangan adabiyotlar.

1. Албитский В.Й., Антонова Е.В., Баранов А.А., Бондар В.И., Волков И.М., Зелинская Д.И. Методические рекомендации по изучению заболеваемости детского населения // Москва, 2009. – 40 с.
2. Анисимова Е.А., Лукина Г.А., Анисимов Д.И. Возрастная изменчивость тотальных размеров тела и типов телосложения женщин // Медицина и здравоохранение. / Москва, 2014. – Т.4. – №6. – С.918-920.
3. Антонова А.А., Ченцова С.Н., Сердюков В.Г. Сравнительная характеристика физического развития детей // Астрахан. мед. журнал. – Астрахан, 2012. – №4. – С.26-29.
4. Баканов И.М. Гигиеническое обоснование двигательного режима учащихся начальных классов школ полного дня // Диссертация к.мед.н. / Москва, 2007. – 199 с.
5. Еренков В.А. Клиническое исследование ребенка // – Киев. «Здоровье», 1984. – С.10-336.
6. Горелов А.А., Горелова Т.А. Образование в информационном обществе // Алма матер (Вестниквысшей школы). / Москва, 2008. – №10. – С.43-46.